



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI TOSHKENT VILOYATI HOKIMINING FARMOYISHI

2025-yil 26-aprel

126-10-0-F/25

Toshkent viloyati hokimligi

Tasviriy va amaliy san’at festivalining viloyat bosqichini o‘tkazish chora-tadbirlari to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining Byudjet kodeksining 12, 14 va 23-moddalari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yilning 19-martdagi “Xalqaro an’anaviy “Tasviriy va amaliy san’at festivali”ga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazish to‘g‘risida”gi 11-sonli bayoni ijrosini ta’minlash maqsadida, O‘zbekiston Badiiy ijodkorlar uyushmasi Toshkent viloyati bo‘limining 2025-yil 1-apreldagi 4-sonli murojaat xati, viloyat hokimi o‘rinbosari D.Babajanov bildirgisini inobatga olib, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi qonunning 6-moddasiga asosan,

1. Toshkent viloyati hokimligi zaxira jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan joriy yilning 21-25 aprel kunlari Chirchiq shahrida Kimyogarlar madaniyat saroyi hovlisida Tasviriy va amaliy san’at festivalining viloyat bosqichini o‘tkazish bilan bog‘liq sarf xarajatlari uchun viloyat hokimligiga 13 468,0 ming so‘m (o‘n uch million to‘rt yuz oltmish sakkiz ming) mablag‘ ajratilsin.

2. Viloyat Iqtisodiyot va moliya boshqarmasi (Sh.Xashimov) mablag‘ ajratish bo‘yicha “Davlat moliyasini boshqarish axborot tizimi”da tegishli o‘zgartirishlar kiritilishini ta’minlasin.

3. Viloyat g‘aznachilik boshqarmasi (F.Nurullayev) ajratilgan mablag‘ bo‘yicha to‘lovlarni o‘z vaqtida amalga oshirilishini ta’minlasin.

4. Viloyat hokimligi Ishlar boshqarmasi (A.Mixmanov) ajratilgan mablag‘larni O‘zbekiston Badiiy ijodkorlar uyushmasining Toshkent viloyati bo‘limining tegishli hisob raqamlariga o‘tkazilishini ta’minlasin.

O'zbekiston Badiiy ijodkorlar uyushmasining Toshkent viloyati bo'limi ajratilgan mablag'ni belgilangan tartibda maqsadli va samarali sarflanishini ta'minlasin.

5. Xalq deputatlari Toshkent viloyati Kengashining 2025-yil 28-martdagi VII-8-44-10-0-K/25-sonli qarori 1-ilovasi 8-bandiga asosan viloyat hokimining 2025-yil 14-apreldagi 111-10-0-F/25-sonli farmoyishining 1-bandidagi:

“Viloyat hokimligiga” so'zlari mos ravishda, “Xalq deputatlari Toshkent viloyati Kengashi kotibiyatiga” so'zlari bilan almashtirilsin.

6. Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti viloyat boshqarmasi huzuridagi davlat moliyaviy nazorati inspeksiyasi (O.Odilov) ajratilgan mablag'dan maqsadli foydalanilishi ustidan nazorat o'rnatsin.

7. Mazkur farmoyish ijrosini ta'minlash viloyat hokimining birinchi o'rinbosari O.Tursunov zimmasiga yuklansin.

**Toshkent viloyati
hokimi**



Z.Mirzayev